

Yo‘qotilgan baxt Ertak

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim-qadim zamonda bir odil podshoh bo‘lib, uning yakka-yu yagona o‘g‘li bo‘lgan ekan. Shoh taxt vorisini munosib tarbiyalabdi, eng dono va bilimdon murabbiylarni yollab, barcha bilimlarni o‘rgatibdi. Harbiy mahoratini oshiribdi. Shahzoda otasi orzu qilganidek har tomonlama mukammal inson bo‘libdi. Balog‘atga yetgan o‘g‘ilni ota-ona uylantirish harakatiga tushishibdi. Shahzodaga munosib, qolaversa, malikalikka loyiq qizni topish oson kechmabdi. Ana shu kunlarda qo‘shni mamlakat podshohi rafiqasi va qizi hamrohligida mehmonga kelibdi. Shahzoda shoh qizini sevib qolibdi.

Shahzodaning ko‘nglidagini bilgan ota mehmonlaridan to‘yga rozilik so‘rabdi. Barcha rozilik bildirgach, to‘y harakatlari boshlanibdi.

Qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y bo‘libdi. Unda ko‘p mamlakatlardan mehmonlar ishtirok etishibdi. Ushbu tantanalarning so‘nggi kechasida qiz juda zerikibdi. Kelin juda chiroyli, lekin bir oz o‘yinqaroq, o‘jar, shoh qizi bo‘lgani uchunmi, bir oz erkatoyroq ekan. Fe‘li sajiyasiga ko‘ra bir yerda uzoq o‘tira olmagan kelin kuyovga berkinmashoq o‘ynashni taklif qilibdi. Shahzoda rozi boimabdi. Ammo go‘zal kelinchak qayta-qayta iltimos qilib uni ko‘ndiribdi.

Avval kuyov berkinibdi, qiz topibdi. Keyin qiz berkinibdi, kuyov topibdi. Qiz o‘yinni davom ettirishni taklif etibdi. To‘y kechasi berkinmashoq o‘ynash naqadar ahmoqona ish ekanini qizga uqtirmoqchi bo‘libdi. Lekin qiz uni eshitishni ham xohlamay xarxasha qilavergach, noiloj ko‘nibdi. Shahzoda yashiringanida qizni intizor qilmaslik uchun tezda ko‘rinib berarkan. Buning ustiga o‘nta xonali ulkan saroyning har bir burchagidan biror insonni qidirishga qancha vaqt ketishini u juda yaxshi bilarkan. Berkinish navbati qizga kelibdi. Kuyov izlay boshlabdi. Lekin har qancha harakat qilmasin, uni topa olmabdi. So‘ngra barcha mehmonlar birgalikda kelinni izlashga tushishibdi. Saroyning har bir burchagini qayta-qayta ko‘zdan kechirishibdi. Ammo malikadan darak bo‘lmabdi. Shunda holdan toygan mehmonlar noiloj tarqalishibdi. Toliqib uyquga ketgan shahzoda ko‘zlarini ochishi bilan yana kelinni izlashga tushibdi. Bir kun, ikki kun, o‘n kun izlabdi. Ammo nech qanday natija bo‘lmabdi. Shundan keyin barcha umid uzibdi.

Yillar o‘tib qayg‘u-alam unutilgach, shahzoda shu mamlakatdagi odobli, tarbiyali, dono va go‘zal qizga uylanibdi. Oradan ancha vaqt o‘tgach, shahzoda taxtga o‘tiribdi. Iki o‘g‘il, ikki qizli bo‘libdi. Mamlakat yanada ravnaq topibdi. U ham otasining yo‘lidan borib farzandlariga yaxshi tarbiya bera boshlabdi.

Kunlardan bir kun saroy xizmatchilaridan biri malikaga yangi ko‘ylak tikish uchun sonanoqsiz sandiqlardan birini ochibdi. Sandiq ichidan odam suyaklari chiqibdi. Bu, shubhasiz, to‘y kechasi bedarak ketgan o‘sha kelin ekan. To‘y kechasi yosh kelinchak shu katta sandiq ichiga berkingan, og‘ir qopqoq shaxd bilan tushib, qulflanib qolgan ekan.

Nima ham derdik, odobli, hammani hurmat qiladigan, o‘z baxtini qadrlaydiganlarga omad va baxt kulib boqadi. Barcha insonlarni qadrlash kerakligini, kelgan baxt bilan berkinmashoq o‘ynab bo‘lmasligini, afsuski, shoh qizi bilmas ekan.